

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV ORTIKJON KAYUMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17–Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Xurramov Ortikjon Kayumovich

Ўзбекистонда raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Хуррамов Ортикжон Каюмович

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития
цифрового туризма в Узбекистане.....29

Khurramov Ortikjon Kayumovich

Improving organizational and economic mechanisms for the development of digital
tourism in Uzbekistan59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV ORTIKJON KAYUMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILiy-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17–Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Iqt1198 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziynet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Azizjon Anvarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "07" iyun soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-26-92, (998 65) 221-27-07, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/682 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil "13" iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil "13" iyun dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori
(DSc), professor

A.O. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli texnologiyalar turizm sohasining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. 2024-yilda jahon bo'ylab turizm sezilarli o'sishga erishdi. 2024-yilda turizm sohasi global yalpi ichki mahsulotga (YaIM) 11,1 trillion dollar hissa qo'shdi, bu dunyo iqtisodiy ishlab chiqarishining 10% ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 12,1% ga oshdi¹. Raqamli texnologiyalar turizm industriyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, sayyohlar uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirish bilan birga, tarmoq infratuzilmasini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologik taraqqiyot turizm xizmatlarini iste'molchilarning dinamik o'zgaruvchan talablariga moslashtirishga ko'maklashib, sayyohlik tajribasini optimallashtirish hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish jarayonini jadallashtirishga turtki bermoqda.

Jahonda sayyohlar raqamli turizm xizmatlarning sifatiga katta e'tibor qaratib, viza olish jarayoni, mehmonxona va transport bronlash, madaniy tadbirlar haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar onlayn rejimda oson va tez amalga oshirilishiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Amalga oshirilayot ilmiy izlanishlar qatorida virtual turizm, onlayn tur-platformalar, mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'rsatish, turizm raqamli makon, turizm infotuzilmasi, raqamli turizm darajalarini baholash, turizm sohasida katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), internet vositalari (IoT), sun'iy intellekt (AI), blokcheyn va virtual reallik kabi texnologiyalarni samarali qo'llash kabi mexanizmlarni shakllantirish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, daromad manbai va yangi ish o'rinlarini yaratish vositasi hisoblanadi. Raqamli turizm esa, turizm xizmatlari samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytirish va turistlarga qulayliklar yaratish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, shuningdek, boy tarixiy-madaniy merosimiz raqamli platformalar orqali dunyoga tanitish, xalqaro turizm oqimini oshirishga ulkan imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida bo'lib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida turli sohalar, jumladan turizmni ham raqamlashtirish maqsad qilingan². Ushbu mavzuning tadqiq qilinishi davlat siyosati va strategik rejalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali xorijiy va mahalliy investitsiyalarni turizm sohasiga jalb qilish imkoniyati oshadi. Yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar esa investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Raqamli turizmni rivojlantirish orqali O'zbekistonni Markaziy Osiyo turizm bozorida raqobatbardosh davlat sifatida ko'rsatish mumkin. Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo kabi turizm sohasida raqamlashtirishni samarali qo'llayotgan hududlar bilan tajriba almashish orqali global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

¹ Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlari <https://www.reuters.com/business/travel-industry-contribute-record-11-trillion-global-gdp-2024-09-03>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6079-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, 2021-yil 9-yanvardagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli turizm va uning rivojlanishi borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan D.Buhalis, A.Dearden, I.Akpan, F.Ijoma, X.Li, Y.Liu, A.Kavoura, S. Koutsou, W.Zhou, J.Xu, A.Morrison, J.Bannister, D.Vassallo, L.Moreno-Izquierdo, F.Moreno, E.Pereira, R.Silva, L.Huang, C.Lee, A.Amaranggana, H.Saar, F.Pereira, F.Vasconcelos, L.Yang, H.Song, E.Gonzalez, J.Rodriguez, M.Orcutt, S.Rehman, S.Raza, H.Sharif, J.Kaur, G.Gunay, S.Sunmez, J.Kim, D.Lee kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi³. Ushbu olimlarning

³ Buhalis D., Dearden A. Information Technology in the Tourism Industry: An Evaluation of E-Tourism Applications // Journal of Tourism Research. – 2008. – T. 12. – № 3. – B. 123-140.; Akpan I.J., Ijoma F. Impact of Digitalization on Tourism in the 21st Century // Journal of Tourism Management. – 2019. – T. 17. – № 5. – B. 15-30.; Li X., Liu Y. Advances in Digital Tourism: Implications for Future Research and Practice. – Springer, 2020. – 268 b.; Kavoura A., Koutsou B. Digital Tourism Marketing: Applications, Trends, and Practiceb. – Springer, 2018. – 210 b.; Zhou W., Xu J. Tourism and the Internet: Opportunities and Challenges for Digitalization // Journal of Tourism Management. – 2017. – T. 35. – № 4. – B. 98-114.; Morrison A.M. Tourism and Technology: Analyzing Future Trends in Digital Tourism. – Routledge, 2018. – 245 b.; Bannister J.P., Vassallo D.A. Smart Tourism Destinations: Transforming Places and Experiences through Technology. – Springer, 2019. – 245 b.; Moreno-Izquierdo L., Moreno F. Digital Technologies in Tourism: Benefits, Challenges, and Opportunityeb. – Cambridge University Press, 2020. – 325 b.; Pereira E.B., Silva R.L. Digital Tourism and Artificial Intelligence: Implications for the Hospitality Industry. – Elsevier, 2021. – 276 b.; Huang L., Lee C. The Role of Big Data and Artificial Intelligence in Tourism: A Review of Applications, Opportunities, and Challenges // Journal of Hospitality and Tourism Technology. – 2021. – T. 12. – № 3. – B. 389-409.; Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations: An Integrated Approach. – Springer, 2015. – 178 b.; Saar H. Digital Transformation and E-Tourism: A New Paradigm for Tourism Management. – Routledge, 2020. – 230 b. Pereira F., Vasconcelos F. Digital Tourism: Opportunities and Challenges in the 21st Century. – Springer, 2019. – 290 b. Yang L., Song H. Digitalization and Innovation in the Tourism Industry: The Role of E-Tourism Platforms and Their Effectiveness // Tourism Management Perspectiveb. – 2021. – T. 39. – № 1. – B. 200-214.; Gonzalez E., Rodriguez J. The Impact of Digital Technology in Tourism Development: A Global Perspective. – Springer, 2020. – 296 b.; Orcutt M. Tourism and Technology: Digital Transformation in Travel and Leisure. – Wiley, 2020. – 310 b.; Rehman B., Raza B. Impact of Digital

tadqiqot ishlarida raqamli turizmning ilmiy jihatlar, rivojlanish tarixi, raqamli texnologiyalarni turizm xizmatlarida qo'llashdagi afzalliklar, shuningdek, bunday yondashuvlar orqali yuzaga keladigan qiyinchiliklar, yangi texnologiyalarning ta'siri, turizm sanoatidagi amaliy qo'llanishi muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida raqamli turizm xizmatlari sohasi va uni rivojlantirishning nazariy jihatlar M.A.Morozov, N.S.Morozova, T.V.Cherevichko, T.V.Temyakova, A.S.Arefyev, E.S.Pershina, S.V.Daragan, D.Muxin, I.V.Bogomazova, Y.V.Anopriyeva, T.B.Klimova, Y. Y. Shedrina, Y.G.Grudistova, V.G.Bagdasaryan, M.S.Oborin, A.K.Tabishova, G.A.Sansizbayeva, J.K.Alimbayeva, Z. N.Tarasenok kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan⁴. Ushbu tadqiqotlarda MDH olimlari turizm va mehmondo'stlik sanoatida raqamli texnologiyalar va raqamli transformatsiyaning o'rni, ahamiyati hamda tendensiyalari, raqamli ekosistemalar va platformalashuv orqali sanoatni modernizatsiya qilish, turizm xizmatlarini yaxshilash va foydalanuvchi tajribasini optimallashtirishga e'tibor qaratishgan.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va turizm sohasidagi yangi texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan blokcheyn texnologiyalari, raqamli portal va platformalarning rivojlanishi, hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, B.N.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, N.S. Ibragimov, I.S.Tuxliyev, X.Djurakulov, U.R.Matyakubov, D.Sh.Yavmutov, A.T.Mirzayev, A.A.Qodirov, A.A. Eshtayev, A.A.Karimov, A.Abduvoxidov kabi mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵.

Transformation on the Tourism Sector in Asia: A Case Study of South Asia // Journal of Asian Tourism. – 2021. – Т. 8. – № 2. – В. 50-70.; Sharif H., Kaur J. Digital Transformation in Tourism and Hospitality: Implications for Emerging Markets // Journal of Tourism & Hospitality Research. – 2020. – Т. 45. – № 6. – В. 1054-1070.; Günay G., Sönmez B. Digital Tourism: Leveraging Technology for Sustainable Growth // International Journal of Sustainable Tourism. – 2020. – Т. 29. – № 10. – В. 1155-1171.; Kim J., Lee D. Tourism and Technology: Exploring the Digital Revolution in Tourism. – Springer, 2021. – 320 b.

⁴ Морозов М. А., Морозова Н. С. Концепция цифровой экосистемы индустрии туризма и гостеприимства //Современные проблемы сервиса и туризма. – 2020. – Т. 14. – №. 4. – С. 27-36.; Черевичко Т. В., Тemyakova Т. В. Цифровизация туризма: формы проявления //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право. – 2019. – Т. 19. – №. 1. – С. 59-64.; Арефьев А. С. «Платформизация» как инструмент управления цифровой трансформацией в сфере туризма //Теоретическая и прикладная экономика. – 2020. – №. 3. – С. 22-34.; Першина Э. С., Дараган С. В. Новые подходы к цифровой трансформации в индустрии туризма //Научный вестник МГИИТ. – 2017. – №. 2. – С. 23-33.; Д.Мухин.Информационно-коммуникационная среда туристско- рекреационного предприятия Крыма, Таврический научный обозреватель. №1, 2017, стр. 18.; Богомазова И. В., Аноприева Е. В., Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы //Сервис в России и за рубежом. – 2019. – Т. 13. – №. 3 (85). – С. 34-47.; Щедрина Е. Ю. и др. Цифровой туризм: как индустрия 4.0 повлияет на туристическую отрасль региона //Современная наука и инновации. – 2019. – №. 1. – С. 251-257.; Грудистова Е. Г. Цифровой маркетинг в сфере сервиса и туризма как инструмент развития цифровой экономики //Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. – 2020. – Т. 6. – №. 1. – С. 45-54.; Багдасарян В. Г. Цифровая экономика в индустрии туризма //Бизнес-образование в экономике знаний. – 2020. – №. 2 (16). – С. 12-14.; Оборин М. С. Направления развития цифровой среды туризма //Сервис в России и за рубежом. – 2023. – Т. 17. – №. 1 (103). – С. 24-32.; Табышова А. К., Сансызбаева Г. А., Алымбаева Ж. К. Цифровизация как тенденция современного развития экономики Кыргызстана и повышения финансовой грамотности населения страны //Сибирская финансовая школа. – 2024. – №. 2. – С. 92-97.; Тарасенок З. Н. Цифровой туризм как современный тренд в сфере путешествий //Стратегия развития экономики Беларуси: вызовы, инструменты реализации и перспективы. – 2022. – С. 570-574.

⁵ Gulyamov B.B., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. – T.: TMI, "Iqtisod-Moliya", 2019. – 400 b.; Navruz-Zoda, B., & Ibragimov, N. (2015). Ways of Applying Destination Management Concepts to the Development of Internal Tourism in Uzbekistan. In International Tourism and Hospitality

Hozirgi paytda O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlanish xususiyatlari va tendensiyasi, undan samarali foydalanish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini nazariy-metodologik jihatdan o'rganish va uning turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilash dolzarb masala hisoblanadi va shu sababli ham bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish o'ta muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining «O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish istiqbollari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy iqtisodiyotda turizm sohasining tutgan o'rni hamda raqamli turizmni rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslarini ilmiy tadqiq etish;

raqamli turizmning boshqa turizm shakllaridan farqlanuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish;

raqamli turizm rivojlanishi bo'yicha xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan tajribalarni o'rganib, ulardan mamlakatimizda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistondagi raqamli turizmning mavjud salohiyatini va uning amaldagi holatini statistik va tahliliy usullar yordamida baholash;

turizm sohasida raqamli infrastrukturallarni rivojlantirish bo'yicha mavjud tashkiliy mexanizmlarni o'rganish va ularning samaradorligini baholash;

in the Digital Age (pp. 172-190). IGI Global.; Navruz-zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi: Monografiya. – Buxoro: "Sadrididdin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2017. – 156 b.; Khamidov O. et al. Trajectory of economic development of the Republic of Uzbekistan in the process of digitization // E3S Web of Conferenceb. – 2023. – T. 431. – B. 07049.; Ibragimov N.B. "Digital divide" as a factor of destination competitiveness of Uzbekistan's tourism sphere // Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2020. – T. 2020. – № 3. – B. 36-47.; Gulyamov B., Jukovskaya I. Osnovnye aspekty effektivnosti primeneniya informatsionnogo i programmnoy obespecheniya v turistskoy otrasli Uzbekistana // Ekonomika i innovatsionnye tekhnologii. – 2011. – № 1. – B. 365-375.; Tuxliev I.B., Jurakulov X. O'zbekiston turizmida raqamli portal va platformalarni shakllantirish xususiyatlari // Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – B. 121-126.; Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2022. -78 b.; Yavmutov D.B. Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara // International scientific review of the problems of economics, finance and management. – 2020. – B. 15-21.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2021. -68 b.; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2024. -68 b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. -71 b.; Karimov A.A. Turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Samarqand. 2024. – 143 b.; Abduvohidov A. O'zbekiston turizm industriyasini rivojlantirishda kompyuter tizimlarini takomillashtirish istiqbollari // O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribani qo'llash: Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. – 2014. – B. 392-393.

raqamli turizm xizmatlari bozorining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni aniqlash va ularning ahamiyatini baholash;

raqamli turizmni rivojlantirishda uzbekistan.travel turistik portalini tahlil qilish, portalni baholashning ballari tizimi mezonini ishlab chiqib u asosda baholash, Uzbekistan.travel portalining ijtimoiy tarmoqlaridagi obunachilar soni bo'yicha ekonometrik modellarni ishlab chiqish va prognozlash usullarini o'rganish;

raqamli turizmni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy tartibga solish usullarini tahlil qilish va ulardan foydalanishning samarali uslublaridan biri sifatida islom moliyasi vositalarini qo'llash imkoniyatlarini ochib berish;

raqamli turizmni rivojlantirish bo'yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish va ularga mos ravishda yangi yagona raqamli milliy turizm platformasini ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi turistik obyektlari va turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mamlakatimizda raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, ekspertlar usuli, statistik tahlil, tizimli tahlil, sotsiologik so'rovlar o'tkazish va ularni tahlil etish, SWOT tahlil, PESTEL tahlil, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamli turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'molchilarda turistik ehtiyojning paydo bo'lishi, sayohatni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va telekommunikatsion tizimlarga ustuvorlik berishi asosida takomillashtirilgan;

raqamli turizmni rivojlantirishda turistik infotuzilmani shakllantirishning ko'lamini baholash uslubiyotining mono (0;0,2], mikro (0,2;0,4], mezo (0,4;0,6], makro (0,6;0,8] va mega (0,8;1,0] koeffitsiyentli guruhlariga tabaqalashtirish asosidagi yondashuvga ustuvorlik berish bilan takomillashtirilgan;

"Uzbekistan.travel" milliy brendini raqamli turizm xizmatlari bozorida samarali targ'ib etish yondashuvi to'rtta ijobiy (keng ko'lamli kontent, sifatli multimedia, qulay interfeys, ijtimoiy media integratsiyasi) hamda to'rtta salbiy (interaktivlikning yetishmasligi, til imkoniyatlarining cheklanganligi, blokcheyn texnologiyasining integratsiya qilinmaganligi, marketing strategiyasining zaifligi) omillari "4I=4S" tizimi asosida takomillashtirilgan;

O'zbekistonda turistlar soni o'zgarishiga internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, turistik korxona va tashkilotlar soni, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining ta'sirini baholash asosida 2029-yilga qadar prognoz ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Raqamli turizm" hamda "turizm infotuzilmasi" tushunchalarini uslubiy yondashuvga ko'ra mukammallashtirish tasnifi ishlab chiqilgan;

Raqamli turizmni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari aniqlangan hamda O'zbekiston sharoitida raqamli makon yaratish modeli ishlab chiqilgan;

raqamli turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar asosida 2020-2021 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti hamda Indoneziyaning Gunadarma universiteti bilan birgalikdagi 71010401 Turizm (Raqamli turizm) qo'shma magistratura mutaxassisligi o'quv reja va o'quv fan dasturlari ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining ilmiy natijalarni amaliyotga tadbqiq qilish bo'yicha № DGU 09756 sonli guvohnoma olingan.

Uzbekistan.travel turistik portalining funksionalligi, foydalanuvchi interfeysi, ma'lumotlarning to'liqligi va tahlil mezonlari bo'yicha baholash usullari ishlab chiqilgan;

onlayn turistik xizmatlarga bo'lgan talab va uni oshirish yo'llari, iste'molchilarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi va elektron to'lov tizimlarining samaradorligini o'rganish natijasida hamda QR-kod asosidagi shaxsiy Tourism ID tizimi, blokcheyn texnologiyasi, ko'p tilli AI yordamchi, Big Data orqali tahlillar, IoT texnologiyalari, raqamli ball tizimi, AR/VR texnologiyalari, turizm xizmatlarining kengaytirilgan to'plami, to'lov tizimlari integratsiyasi, statistik hisobot va monitoring kabi yangi tarkiblarni qo'shgan holda raqamli turizm yagona platformasini ishlab chiqish mexanizmi taklif etilgan;

tadqiqotda raqamli turizmni rivojlantirishda iqtisodiy tartibga solish usullari doirasida sukuk, murobaha, muzoraba, salam, istisna kabi islom moliyasi vositalarini qo'llash imkoniyatlarini ochib berilgan, ularning moliyalashtirish samaradorligi va resurslarni adolatli taqsimlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga, shuningdek, Jahon banki, BMTning Xalqaro turizm tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), hamda "Datareportal.com", "Euromonitor.com" axborot tahlil agentlilari kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalaridan raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va turizmga raqamli makonni yaratish hamda ularni baholash yo'llarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Yangi O'zbekistonni barpo etishda «O'zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish jarayonida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarni belgilashda, unda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan respublikada turizm bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar

faoliyatini takomillashtirishda, raqamli turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar asosida 2020-2021 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti hamda Indoneziyaning Gunadarma universiteti bilan birgalikdagi 71010401 Turizm (Raqamli turizm) qo'shma magistratura mutaxassisligi o'quv reja va o'quv fan dasturlari ishlab chiqilgan hamda iqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga «Raqamli turizm», «Turizm: nazariya va amaliyot», «Turizmologiya», «Elektron biznes» kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamli turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmumi iste'molchilarda turistik ehtiyojning paydo bo'lishi, sayohatni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va telekommunikatsion tizimlarga ustuvorlik berishi asosida takomillashtirish taklifidan "Raqamli turizm" darslik matnini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 500-314 sonli guvohnoma). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida raqamli turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tizimli tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar hosil qilishga erishish imkoni yaratilgan. Tadqiqot ishi natijalari "Raqamli turizm" fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

raqamli turizmni rivojlantirishda turistik infotuzilmani shakllantirishning ko'lamini baholash uslubiyotining mono (0;0,2], mikro (0,2;0,4], mezo (0,4;0,6], makro (0,6;0,8] va mega (0,8;1,0] koeffitsiyentli guruhlariga tabaqalashtirish asosidagi yondashuvga ustuvorlik berish bilan takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 4a-ilova "2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-martdagi 03-10-17-1959-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida raqamlashtirilgan turistik xizmatlar tizimini ishlab chiqishda infotuzilmani 5 ta guruh asosida (0-1) koeffitsiyentda baholash aniqligi ortgan;

"Uzbekistan.travel" milliy brendini raqamli turizm xizmatlari bozorida samarali targ'ib etish yondashuvi to'rtta ijobiy (keng ko'lamli kontent, sifatli multimedia, qulay interfeys, ijtimoiy media integratsiyasi) hamda to'rtta salbiy (interaktivlikning yetishmasligi, til imkoniyatlarining cheklanganligi, blokcheyn texnologiyasining integratsiya qilinmaganligi, marketing strategiyasining zaifligi) omillari "4I=4S" tizimi asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-dekabrdagi 820-son "Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi

Qarorining 4-bo'lim "b" bandida keltirilgan maqsadlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-martdagi 03-10-17-1959-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida milliy brend "Uzbekistan.travel" turistik portal sahifasini modernizatsiya qilish hamda uning uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash orqali obunachilar sonining 36,7 foizga oshirilishiga erishilgan;

O'zbekistonda turistlar soni o'zgarishiga internet tarmog'ida ulangan abonentlar soni, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalar soni, turistik korxona va tashkilotlar soni, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining ta'sirini baholash asosida 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi tomonidan turizmini rivojlantirishning mintaqaviy dasturlari va "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-martdagi 03-10-17-1959-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish, mamlakatimizda tashrif buyuruvchi turistlarga ko'rsatiladigan raqamli turizm xizmati 2025-2029-yillar davomida maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 21 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 9 ta xalqaro va 12 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan 1 ta darslik, 2 ta yakka mualliflikdagi va 1 ta hammualliflikdagi monografiya, 1 ta mualliflik guvohnomasi DGU, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 9 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, ulardan 3 tasi Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Disseratsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublikamizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **"Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida raqamli turizm shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari"** deb nomlangan

birinchi bobida raqamli turizmning shakllanishi, mohiyati, mazmuni va darajalari, raqamli turizm rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, dunyo miqyosida turizm sohasini raqamlashuvining zamonaviy tendensiyalari va ilg'or tajribalar tahlil qilindi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarsiz iqtisodiy faoliyat sohaslarini rivojlantirish masalasini hech kim tassavvuriga ham sig'dira olmaydi. Chunki hozirda axborot kommunikatsion texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa har bir sohada o'z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshlikni oshirish vazifalarini yuklaydi. Turizm sohasining evolyutsiyasi raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular turistik tajriba yaratish, taqdim etish va iste'mol qilish jarayonlarini qayta shakllantirmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turizm sohasini tubdan o'zgartirib, raqamli turizm konsepsiyasini shakllantirdi. Dunyo miqyosidagi yetakchi tadqiqotchilarning raqamli turizm bo'yicha ilmiy izlanishlari va nazariy qarashlarini aks ettiradi. Ushbu tadqiqotlar axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, "aqlli" turizm, elektron marketing yondashuvlari, mobil ilovalar va bulutli hisoblash kabi keng qamrovli mavzularni qamrab olgan bo'lib, global turizm industriyasidagi raqamli transformatsiya jarayonlarining ilmiy-nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Raqamli turizm rivojlanishining bosqichlari⁶

Raqamli turizm konsepsiyasi zamonaviy turizm sohasining paradigmatic o'zgarishlarini aks ettiruvchi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning nazariy asoslarini xalqaro va milliy darajadagi ko'plab olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida turlicha ta'riflashgan. Quyida keltirilgan 1-jadvalda g'arblik olimlar hamda MDH ilmiy maktabi vakillarining raqamli turizm tushunchasiga bergan ta'riflari jamlangan bo'lib, ular raqamli texnologiyalarning turistik tajriba, boshqaruv jarayonlari, biznes modellari, xizmatlar ko'rsatish va turistik ekotizimlar transformatsiyasidagi ahamiyatiga alohida urg'u berib, tadqiqotchilar uchun nazariy asosni mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta'riflarning sintetik tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli turizm - bu shunchaki texnologiyalarni joriy etish emas, balki turizm sohasidagi munosabatlar, jarayonlar va tajribalarning chuqur transformatsiyasi bo'lib, u katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, mobil texnologiyalar va raqamli platformalarning turizmga integratsiyalashuvi orqali turistik xizmatlarni yaratish, taqdim etish va iste'mol qilishning yangi ekotizimini shakllantiradi. Bu esa turizm sohasidagi barcha manfaatdor tomonlar - turistlar, xizmat ko'rsatuvchilar, boshqaruv organlari va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarning yangi formatini talab etib, olimlar, amaliyotchilar va boshqaruv organlari uchun raqamli turizmning nazariy-metodologik asoslarini yanada chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.


1-jadval

Raqamli turizmga oid turli ta'riflar⁷

Muallif (lar)	Ta'rif	Manba
Buhalis va Amaranggana	"Raqamli turizm - bu raqamli vositalar, mahsulotlar va xizmatlarning hayotiy tajriba sifatida turizmga integratsiyalashuvi"	Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations // Information and communication technologies in tourism 2014. – 2013. – B. 553
Gretzel va boshqalar	"Raqamli turizm - bu turistik tajribani boyitish, turizmning samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi"	Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. – 2015. – T. 25. – № 3. – B. 179
Sigala	"Raqamli turizm - bu ma'lumotlar va raqamli platformalardan foydalanib, turistik tajribani personalizatsiya qilish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va turistik mahsulotlarni birgalikda yaratishning yangi usullarini taklif etishdir"	Sigala M. New technologies in tourism: From multi-disciplinary to anti-disciplinary advances and trajectories // Tourism Management Perspectives. – 2018. – T. 25. – B. 151-155.
Femenia-Serra va Ivars-Baidal	"Raqamli turizm turistik joylarni boshqarish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lishning yangi usullarini yaratish uchun katta ma'lumotlar va mobil texnologiyalar kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanishga asoslangan"	Femenia-Serra F., Ivars-Baidal J.A. Do smart tourism destinations really work? The case of Benidorm // Asia Pacific Journal of Tourism Research. – 2018. – T. 23. – № 12. – B. 1112-1132.
Morozov M.A. va Morozova N.S.	"Raqamli turizm - bu turizm sohasidagi barcha ishtirokchilar faoliyatini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistlarning ehtiyojlarini qondirish va turistik biznesning samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladi"	Morozov M.A., Morozova N.B. Novaya paradigma razvitiya turizma i industrii gostepriimstva v usloviyax tsifrovoy ekonomiki // Vestnik Rossiyskogo novogo universiteta. Seriya: Chelovek i obshchestvo. – 2018. – № 1. – B. 135
Gulyaev V.G. va Rassokhin A.T.V.	"Raqamli turizm - bu turistik soha subyektlarining iqtisodiy va boshqaruv munosabatlarini transformatsiya qilish internet texnologiyalaridan foydalanish orqali turistik xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va iste'mol qilish jarayonlarini optimallashtirish"	Gulyaev V.G., Rassokhin A.T.V. Tsifrovaya transformatsiya kak opredelyayushhiy faktor razvitiya turizma i gostinichnogo biznesa // Vestnik RMT. – 2019. – № 1. – B. 33
Kalnei V.A. va Shishov S.E.	"Raqamli turizm - bu turistik xizmatlarni ko'rsatish va olishning raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan yangi formati bo'lib, mavjud turistik infrastruktura va xizmatlarning raqamli tizimlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi"	Kalnei V.A., Shishov B.E. Tsifrovizatsiya v sfere turizma i gostepriimstva // Vestnik RMT. – 2018. – № 2. – B. 48
Xurramov O.K.	Raqamli turizm deganda turistik ehtiyojning paydo bo'lishi, sayohatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va undan bahra olish jarayonlarida raqamli texnologiya va vositalardan foydalanish bo'lib, bunda sayohatchilarga sayohatdan oldin, sayohat davomida va undan keyin taqdim etiladigan elektron xizmatlar majmuasi muhim ahamiyat kasb etadi	Xurramov O.K. Raqamli turizm: Darslik. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy Durdona nashriyoti, 2021. – B. 15

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

Turizm sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari raqamli texnologiyalarning jadal integratsiyasi bilan xarakterlanadi. Quyida 2-rasmda taqdim etilgan Venn diagrammasi asosida ko‘rishimiz mumkinki, raqamli turizm konsepsiyasining zamonaviy talqinlarida G‘arb va MDH ilmiy maktablari orasida ham umumiylik, ham farqli yondashuvlar kuzatiladi. Umumiy jihatlarda raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga chuqur integratsiyasi, soha transformatsiyasi, platforma yechimlarining rivojlanishi, yangi format xizmatlar yaratilishi va samaradorlikni oshirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Raqamli turizm ta'riflarining Venn diagrammasi tahlili asosida mualliflik ta'rifi⁸


G‘arb maktabi asosan turistik tajribani personalizatsiya qilish, birgalikda yaratish (co-creation) konsepsiyalari, turistlar tajribasini boyitish, raqobatbardoshlik, innovatsion yechimlar va katta ma'lumotlar tahliliga ko‘proq e’tibor qaratsa, MDH maktabi vakillari turistik boshqaruv tizimlarini transformatsiya qilish, nazorat mexanizmlari, iqtisodiy samaradorlik, turistik subyektlar orasidagi o‘zaro munosabatlar, jarayonlarni optimallashtirish va infrastruktura integratsiyasi masalalariga chuqurroq yondashishadi, bu esa har ikki ilmiy maktabning nazariy-metodologik asoslarini birlashtiradigan sintezlashgan yondashuvlarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Biz taklif etayotgan mualliflik ta’rifimizda har ikki maktab yondashuvlarini sintez qilgan holda, raqamli turizmning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yaxlit tushunchani ifodalaydi.

Taklif etilayotgan mualliflik ta’rifi zamonaviy raqamli turizm konsepsiyasini to‘laqonli aks ettiradi, chunki u g‘arb maktabining turistik tajribani boyitish va turistlar ehtiyojlarini qondirish yondashuvlarini, hamda MDH maktabining boshqaruv va

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tashkiliy jarayonlar samaradorligini oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etgan. Ta'rifda raqamli turizmning eng muhim jihati - turistik tajribaning barcha bosqichlarida (sayohatdan oldin, sayohat davomida va undan keyin) raqamli texnologiyalardan foydalanish tamoyili aniq ifodalangan. Mualliflik ta'rifining yana bir muhim jihati shundaki, u turistik "ehtiyojning paydo bo'lishi" bosqichidan tortib "bahra olish" jarayonigacha bo'lgan to'liq turistik faoliyat siklini qamrab oladi.

Raqamli turizmni kompleks tushunish uchun uning turli miqyoslarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli turizmni yanada yaxshiroq anglash uchun uni turli darajalar bo'yicha tasniflab chiqdik (3-rasm). Ierarxik yondashuv asosida raqamli turizm mono darajagadan (individual sayohatchi tajribasi) tortib, mega darajagacha (global miqyosdagi platformalar va tizimlar integratsiyasi) bo'lgan tizimli ko'rinishda tasniflanadi, bu esa turli subyektlar - alohida turistlardan tortib to xalqaro tashkilotlarga - raqamli transformatsiya jarayonidagi o'rnini aniqlab olish imkonini beradi.




3-rasm. Turli darajadagi raqamli turizmning o'zaro bog'liqlik konseptual modeli⁹

Taqdim etilgan chizmada raqamli turizm besh asosiy daraja – mono, mikro, mezo, makro va mega darajalarda ko'rib chiqilgan bo'lib, har bir daraja o'ziga xos koeffitsiyent oralig'i bilan baholanadi. Bu tasnif turli geografik hamda boshqaruv doiralarida raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga singdirilish darajasini aniq baholash, qiyosiy tahlil qilish va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mono darajali raqamli turizm har bir sayohatchi va turist uchun turli manfaatlarni taqdim etadi. Bu manfaatlar sayohatga ehtiyojning paydo bo'lishidan boshlab, undan keyingi rejalashtirish, xaridni amalga oshirish, so'ngra sayohatni amalga oshirish hamda rohatlanish, bahra olishgacha bo'lgan jarayonlarni yanada qulayroq va samaraliroq tashkil qilish imkoniyatini beradi (4-rasm).

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4-rasm. Mono darajali raqamli turizmning sxematik ko‘rinishi¹⁰

Zamonaviy turizm industriyasi global raqamli transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda, bunda turizm bozorining global platformalashuvi asosiy tendensiyaga aylanmoqda. Raqamli platformalar (Booking.com, Airbnb, Expedia, TripAdvisor) turizm bozorining markaziy o‘yinchilariga aylanib, turistik xizmatlarni taqdim etish, qidirish va bronlash tizimlarini birlashtirgan global ekotizimlarni shakllantirmoqda. Ushbu platforma operatorlari ulkan ma’lumotlar bazalariga ega bo‘lib, sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda turistlar xatti-harakatlarini bashorat qilish, talab dinamikasini tahlil etish va turli turistik yo‘nalishlar oqimlarini modellashtirish imkoniyatiga ega. Global turizm platformalarining yillik aylanmasi 2023 yilda 200 milliard dollardan oshib, bu soha raqamli iqtisodiyotning eng tez o‘sayotgan segmentlaridan biriga aylangani kuzatilmoqda.¹¹



5-rasm. Turizm sohasi raqamlashuvining tendensiyalari¹²

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹¹ Global Online Travel Overview 2023. <https://www.phocuswright.com/Travel-Research/Global-Online-Travel-Overview-2023>

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Singapurda interaktiv xaritalar va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali turistlarga qulay xizmatlar taqdim etilmoqda. Estoniyada esa "e-Residency" dasturi orqali xorijiy fuqarolarga raqamli identifikatsiya berilib, turizm xizmatlaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan. Yaponiya mehmonxonalarida robotlar va sun'iy intellekt asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Bu tajribalar O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish uchun muhim o'rnak bo'la oladi.

Dissertasiyaning **“O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish omillari va ko'rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish salohiyati va hozirgi holati, raqamli makon va turizm infotuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini joriy qilish tahlili, raqamli turizm xizmatlari bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash haqida so'z borgan.

Datareportal.com ning 2024-yil oktabrdagi “Digital 2024” hisobotiga ko'ra, 8.18 miliarddan iborat dunyo aholisining 67.5 foizi, ya'ni 5.52 milliardi Internet, 70.3 foizi (5.75 mlrd.) mobil telefonlari foydalanuvchisi sanaladi, hamda 5.22 milliard inson, ya'ni dunyo aholisining 63.8 foizi ijtimoiy medianing faol foydalanuvchisidir¹³. O'z navbatida bu raqamlar har yili tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, Internet foydalanuvchilari turli yoshdagi, turlicha daromadli va ijtimoiy mavqega ega bo'lgan odamlardir. Shunisi qiziqki, Internet resurslaridan faol foydalanuvchilar orasida har yili ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiladigan va ma'lumot qidirish uchun Internetdan foydalanadigan keksa yosh odamlar ko'payib bormoqda. Jahon tendensiyasiga hamohang ravishda O'zbekistonda ham internet foydalanuvchilarining umumiy soni 30 milliondan, mobil internetdan foydalanuvchilar soni esa 27 milliondan oshdi¹⁴.

2-jadval tahliliga ko'ra O'zbekistonda raqamli turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri xorijiy turistlar oqimining o'sishidir. 2015-yilda mamlakatga 1.92 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 8.2 millionga yetdi. Turistlar sonining ortishi turizm infratuzilmasining rivojlanishi, jumladan, mehmonxona va joylashtirish obyektlari sonining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, bu raqam 2015-yildagi 661 birlikdan 2024-yilda 1511 birlikka yetgan. Bundan tashqari, turistik firma va tashkilotlar soni ham sezilarli darajada oshib, 2015-yilda 398 birlikni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 762 taga yetdi. Ushbu o'zgarishlar raqamli texnologiyalar yordamida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularni turizm sohasi bilan integratsiyalash jarayoni internet abonentlari sonining oshishi bilan bevosita bog'liq. 2015-yilda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 8.3 million bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 33.1 millionga yetgan. Bu esa raqamli turizm xizmatlarining rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi ham sezilarli o'sib, 2015-yilda 3.58 trillion so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 34.75 trillion so'mga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar turizmga raqamli xizmatlar, jumladan, onlayn

¹³ <https://datareportal.com/> ma'lumotlari asosida

¹⁴ <https://mitc.uz/uz/reports/digital-economy-telecommunications>

bronlash tizimlari, virtual gid xizmatlari va elektron to'lov tizimlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatladi.

2- jadval

**O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar
(2015-2024-yillar)¹⁵**

№	Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yil 2015 yilga nisbata n o'sish
1.	Tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, mln ¹⁶	1.92	2.03	2.69	5.35	6.75	1.55	1.88	5.23	6.6	8.2	4.2 marta
2.	Jami aholi soni, ming kishi	31022,5	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	37543,1	1.2 marta
3.	Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, ming birlik	8339,1	9626,8	11168	13321,7	16386,2	19981	22987,2	26723,6	30061	33124,5	3.9 marta
4.	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (obyektlar) joylar soni, birlik	661	750	816	916	1051	1156	1085	1167	1387	1511	2.3 marta
5.	Turistik firma va tashkilotlar soni, birlik	398	433	449	502	517	337	288	348	593	762	1.9 marta
6.	Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm	5181,5	6306,8	8196,7	10332,6	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	46015,7	8.9 marta
7.	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi, mlrd. so'm	3581,7	4575,3	6501,6	7615,1	8208,1	10157,1	13012,3	18172	26463,9	34755,8	9.7 marta


Shu bilan birga, mamlakat aholisi sonining o'sishi ham turizm xizmatlariga bo'lgan talabni oshirishda muhim rol o'ynadi. 2015 yilda O'zbekiston aholisi 31 million bo'lsa, 2024 yilga kelib 37.5 millionga yetgan. Bu esa ichki turizmni ham rivojlantirish imkonini beradi. Umuman olganda, raqamli infratuzilmaga kiritilgan sarmoyalar va turizm sohasida amalga oshirilgan raqamlashtirish jarayonlari O'zbekistonni global turizm bozorida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertantning fikricha O'zbekistonda turizmni yanada taraqqiy ettirish uchun zaruriy **turistik infratuzilma** bilan birgalikda **turistik infotuzilmani** rivojlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Turistik infotuzilma – bu turizmga oid barcha turdagi xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning majmuasi bo'lib, turizm xizmatlarini sifatli tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida turizmga taalluqli barcha sohalarda ma'lumot olish manbalarini joriy qilish va ularni

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz veb sahifasi [ma'lumotlari](#) asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁶ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm, Global va mintaqaviy turizm ko'rsatkichlari <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

jadal takomillashtirish raqamli makonni shakllantiradi. Bu esa nafaqat mahalliy sayohatchilar, balki xorijiy sayyohlar uchun ham qulaylik va jozibadorlik yaratadi. Turistik infotuzilmaning rivojlanishi turistlarning o'zlariga kerakli ma'lumotlarni tezkor va qulay tarzda olishiga xizmat qilib, mamlakatning turistik salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli infotuzilma turistlar oqimini boshqarishda va ularning tajribasini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



6-rasm. Turizm infotuzilmasining tarkibiy qismlari ¹⁷

Bunda xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazishning an'anaviy shakllarini, masalan, buklet, flayer, varaqa, broshyura va bannerlarni tayyorlash bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish lozim. Jumladan, veb-sahifalar va mobil ilovalarni yaratish, ijtimoiy tarmoqlardagi (Facebook, Instagram va boshqalar) sahifalarni rivojlantirish, messenjerlardagi (WhatsApp, Telegram) kanal va botlarni ishga tushirish, shuningdek, video portallar (YouTube, Rutube, MyTube)da maxsus profilarni yo'lga qo'yish orqali turistlar bilan doimiy aloqada bo'lish mumkin. Bundan tashqari, QR-kod texnologiyasidan foydalanish orqali turistlarga joylashuv, tarixiy obyektlar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni tezkor yetkazish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu yondashuv, raqamli turizmni rivojlantirishda innovatsion yutuqlarni samarali qo'llashni ta'minlab, turistlarning qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida O'zbekistonda raqamli turizm rivojlanish holatini o'rganish maqsadida muallif tomonidan o'zbek va rus tillarida google so'rovnoma formasi tayyorlanib, so'rov o'tkazilgan (7-rasm). So'rovnomada 2051 nafar respondent ishtirok etib, ulardan 1242 nafari erkak (61%) va 809 nafari ayol (39%) bo'lgan.


Respondentlarning 85% dan ortig'i 40 yoshgacha bo'lib, bu yosh guruhlari Z avlod (24 yoshgacha) va Y avlod (25-40 yosh) vakillaridir. Ko'rinib turibdiki, eng faol qatnashgan guruh 25-40 yosh orasidagi Y avlod vakillari bo'lib, ular umumiy respondentlarning qariyb yarmiga to'g'ri keladi. Bu yosh guruhining sayohatlarga qiziqishi yuqori bo'lib, ularning moliyaviy mustaqilligi va texnologiyalardan foydalanish qobiliyati yuqori bo'lishi mumkin. Z avlod vakillari ham katta ulushni tashkil etadi, bu esa yoshlarning turizmga bo'lgan ehtiyoji va sayohatga tayyor ekanligini ko'rsatadi. So'rovnomada eng ko'p ishtirokchilar Buxoro (29%), Toshkent

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

shahri (18%) va Samarqand (9%) viloyatlaridan bo'lib, qolgan viloyatlardan qatnashganlar soni 2% dan 7% gachani tashkil etgan.

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi bevosita raqamli infratuzilma, turizm marketingi va onlayn platformalar samaradorligiga bog'liq. Uzbekistan.travel milliy sayyohlik portali sayyohlar uchun axborot manbai bo'lishi lozim bo'lsa-da, so'rovnoma natijalari uning ommalashmagani va samaradorligi pastligini ko'rsatdi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning rasmiy sayyohlik portali hali ommalashmaganligi va uning imkoniyatlaridan keng foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. 64% respondentning saytdan bexabar ekanligi ushbu portalni ommalashtirish, reklama targ'ibotini kuchaytirish zarurligini bildiradi. Atigi 4% foydalanuvchilar saytni faol ishlatishi uning foydalanish qulayligi va foydali axborot taqdim etish darajasini oshirish lozimligini ko'rsatadi. Facebook va Telegram kabi ijtimoiy platformalarda targ'ibotni kengaytirish orqali saytga jalb qilish samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston sayyohlik industriyasi uchun raqamli platformalarning o'rni muhim bo'lib, Uzbekistan.travel kabi milliy portallarni rivojlantirish, ularni xalqaro sayyohlik tarmoqlariga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.



7-rasm. Respondentlarning Uzbekistan.travel sayti haqida xabardorligi va undan foydalanish darajasi¹⁸

Respondentlarning Uzbekistan.travel portali xizmatlariga bergan bahosi bo'yicha natijalarga ko'ra 25% foydalanuvchilar saytni "o'rtacha" deb baholagan, bu esa uning hali to'liq qulay va mukammal emasligini bildiradi. 12% respondent saytni qoniqarsiz deb baholagan, bu esa tuzilmaviy va texnik kamchiliklarni bartaraf etish zarurligini ifodalaydi. 10% respondent saytga "a'lo" baho bergan, bu esa uning ma'lum darajada foydali ekanligini bildiradi, ammo ko'pchilik uchun hali ham kerakli xizmatlarni taqdim etmayotganini anglatadi.

Muallif hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonning texnologiya qamrovi darajasi 81.7 foizni tashkil etadi (3-jadval), bu esa Internet foydalanuvchilarining umumiy aholi soniga nisbatan ulushini ifodalaydi. Shuningdek, Internet qamrovi 88.3% ni tashkil

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

etmoqda, bu esa Internet abonentlarining jami aholi soniga nisbatan ulushini ko'rsatadi. Mobil internet ulushi esa 81.2% ni tashkil etib, mobil aloqa orqali Internetga ulangan abonentlar soni umumiy Internet abonentlari soniga nisbatan hisoblanadi. AKT sektorida yaratilgan qiymatni baholash bo'yicha, ya'ni AKT ulushi YaIMga nisbatan 2.92% ni tashkil etmoqda.

3- jadval

O'zbekistondagi texnologiya va internet infratuzilmasining rivojlanish darajasi hisoblash algoritmi (2024 yil holatida) ¹⁹

№	Ko'rsatkich-lar	Hisoblash algoritmi	Shartli belgilari	Hisoblanishi
1.	Internet qamrovi	$IQ = \frac{IFs}{ASu} \times 100$	QD _i - Internet qamrovi IFs – internet foydalanuvchilar soni ASu – umumiy aholi soni	$IQ = \frac{33124500}{37543100} \times 100 \approx 88.3\%$
2.	Mobil internet ulushi	$MI_u = \frac{MIAs}{IFs}$	MIu - Mobil internet ulushi MIAs - Mobil internet abonentlar soni IFs – internet foydalanuvchilar soni	$MIu = \frac{27087300}{33124500} \times 100 \approx 81.2\%$
3.	YaIMdagi AKT ulushi	$YAIM_{akt} = \frac{Qakt}{YaIM} \times 100$	YAIMakt - YaIMdagi AKT ulushi Qakt -AKT qiymati	$YAIM_{akt} = \frac{34755800}{1192163000} \times 100 \approx 2.92\%$

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari”** deb nomlanib, unda raqamli turizmni rivojlantirishda turistik portalni ekonometrik modellashtirish va prognozlash, O'zbekistonda raqamli turizmni iqtisodiy mexanizmlar asosida rivojlantirishning tartibga solish usullari, mamlakatimizda raqamli turizmni konseptual yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmini shakllantirish borasida fikrlar keltirilgan.

Raqamli texnologiyalar asrida turizm sohasining raqobatbardoshligi ko'pincha onlayn platformalar orqali baholanadi. Uzbekistan.travel O'zbekistonning rasmiy turizm portalini sifatida mamlakatning madaniyati, tabiati va tarixini dunyo miqyosida targ'ib qilishga xizmat qiladi. Sayt sayyohlar uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etuvchi asosiy manba bo'lib, uning qulayliklari va kamchiliklari mamlakat turizm salohiyatining xalqaro darajadagi taqdimotiga ta'sir qiladi.

Uzbekistan.travel — O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan 2018-yilda ishga tushirilgan rasmiy turizm portalini hisoblanadi. Portalning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq amalga oshirilgan.

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Uzbekistan.travel” veb-sahifasiga o‘zaro balanslashgan (4I=4S) miqdordagi tahlil strategiyasi²⁰

IJOBIY (4I)		SALBIY (4S)	
Keng ko‘lamli kontent	✓ Ma‘lumot qamrovi: barcha asosiy turistik yo‘nalishlar va shaharlar ✓ Kontent turlarining xilma-xilligi: tarixiy yodgorliklar, muzeylar, madaniyat ✓ Turistik marshrutlar: turli yo‘nalishlar va yo‘l-yo‘riqlar ✓ Amaliy ma‘lumotlar: viza, transport, valyuta, ob-havo ma‘lumotlari	Interaktivlikning yetishmasligi	- Chatbot yoki yordam tizimining yo‘qligi - Personalizatsiya mexanizmlarining kamligi - Foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent imkoniyati yo‘q - Interaktiv xaritalarning cheklanganligi
Sifatli multimedia	✓ Yuqori sifatli fotosur‘atlar: professional tasvirlar ✓ Video materiallar: virtual sayohatlar ✓ 360° panorama ko‘rinishlar: virtual tashrif ✓ Audio gidlar: qulay formatdagi ma‘lumotlar	Til imkoniyatlarining cheklanganligi	- Cheklangan tillar soni: faqat 3 til (o‘zbek, rus, ingliz) - Tarjima sifati muammolari: to‘liq bo‘lmagan tarjimalar - Tillarga qarab kontent hajmi farqi - Mahalliy dialektlar va til variantlarining yo‘qligi
Qulay interfeys	✓ Saytning mantiqiy strukturasi va navigatsiya ✓ Zamonaviy va ko‘zga yoqadigan dizayn ✓ Adaptiv dizayn: turli qurilmalarga moslashuvchanlik ✓ Tezkor yuklanish: foydalanuvchi tajribasini yaxshilash	Blokcheyn texnologiyasining integratsiya qilinmaganligi	- Blokcheynga asoslangan to‘lov tizimlarining yo‘qligi - NFT-asoslangan turistik tajribalarning yo‘qligi - Smart-kontraktarning integratsiya qilinmasligi - Decentralizatsiya imkoniyatlaridan foydalanilmasligi
Ijtimoiy media integratsiyasi	✓ Ijtimoiy tarmoq platformalari bilan bog‘lanish ✓ Kontent ulashish imkoniyati ✓ Ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy profillarning mavjudligi ✓ Ijtimoiy media orqali qayta aloqa	Marketing strategiyasining zaifligi	- SEO optimizatsiyasining yetarli emasligi - Targetlangan reklama strategiyasining kamligi - Analitika tizimining zaif rivojlanganligi - Turoperatorlar va hamkorlar bilan integratsiya kamchiligi

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra “Uzbekistan.travel” veb-sahifasi keng ko‘lamli kontenti, sifatli multimedia materiallari, qulay interfeysi va ijtimoiy media integratsiyasi bilan foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi. Ushbu ijobiy jihatlar sayyohlar uchun O‘zbekiston haqidagi ma‘lumotlarni tez va oson topishga yordam beradi. Ayniqsa, interfaol va vizual jihatdan jozibador materiallarning mavjudligi saytning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, platformaning interaktivlikning yetishmasligi, til imkoniyatlarining cheklanganligi, blokcheyn texnologiyasining integratsiya qilinmaganligi va marketing strategiyasining zaifligi kabi salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida saytga ko‘proq interaktiv vositalarni qo‘shish,

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turli tillarda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali global auditoriyani jalb qilish strategik muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

Uzbekistan.travel veb-sahifasi O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib qilishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu saytni baholash va uning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash uchun maxsus baholash ballari tizimi dissertatsiyada ishlab chiqilgan va baholangan (5-jadval).

5-jadval

Uzbekistan.travel portalini ballar tizimi asosida baholash natijalari²¹

Bo'limlar	Mezonlar	Maksimal Ball	Baholash
1. Dizayn va interfeys		25	20
	Navigatsiya qulayligi	10	8
	Sahifalarning yuklanish tezligi	10	8
	Moslashuvchan dizayn (mobil moslashuv)	5	4
2. Kontent		35	30
	Turizm ma'lumotlarining dolzarbligi	10	9
	Multimedia sifati	10	9
	Mahalliy xizmatlar (restoran, mehmonxona)	10	6
	Kontentning dolzarbligi va yangiligi	5	6
3. Interaktivlik		20	12
	Xaritalar va marshrutlar	10	6
	Bronlash imkoniyati	10	0
	Jonli aloqa va qo'llab-quvvatlash	5	6
4. Marketing strategiyasi		20	12
	SEO optimizatsiyasi	10	8
	Ijtimoiy media faolligi	5	4
	Xalqaro reklama va hamkorlik	10	6
Umumiy ballar		100	74

Umumiy baholash natijasiga ko'ra, Uzbekistan.travel platformasi yaxshi holatda bo'lsa-da, uni takomillashtirish zarur. Saytning bronlash tizimi, interaktiv xaritalar funksionalligi va jonli aloqa xizmatlarini yaxshilash orqali interaktivlikni oshirish mumkin.

Uzbekistan.travel portalining facebook, instagram, pinterest, X(Twitter), telegram va YouTubedagi kanallaridagi jami obunachilar sonini 2020 yil 3 chorakda 56287 tadan 2024 yil 4 chorakda 109135 taga o'zgarishlar dinamikasi o'rganilganda quyidagicha qonuniyat mavjud ekanligi aniqlandi.

Trend tenglama formulasi quyidagicha:

$$y = 46203 \cdot e^{0,0434x}$$

Yuqoridagi bu trend tenglamani determinatsiya koeffitsiyenti 0,84 ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu koeffitsiyent 1 ga yaqin bo'lganligi sabab, taklif qilinadigan trend tenglamaning ishonchligi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu trend tenglamadan foydalanib Uzbekistan.travel portalining facebook, instagram, pinterest, X(Twitter), telegram YouTubedagi kanallaridagi jami obunachilar sonining 2025 yil 1 chorakdan 2026 yil 4 chorakkacha bo'lgan prognoz natijalarini aniqlaymiz.

²¹ muallif ishlanmasi

6-jadval

Uzbekistan.travel portali barcha ijtimoiy sahifalaridagi obunachilar soni (2025-yil 1-chorakdan 2026-yil 4-chorakkacha prognoz)²²

	2025 yil 1-chorak	2025 yil 2-chorak	2025 yil 3-chorak	2025 yil 4-chorak	2026 yil 1-chorak	2026 yil 2-chorak	2026 yil 3-chorak	2026 yil 4-chorak
Uzbekistan.travel portalining jami ijtimoiy tarmoqlaridagi obunachilari soni	110062	114944	120042	125366	130927	136735	142800	149133

Tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soniga ta'sir qiluvchi faktorlarni o'rganamiz. Bu faktorlar orqali tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning prognoz natijalarini aniqlaymiz. Buning uchun taklif qilinadigan regressiya tenglamaning umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalab olamiz.

$$Y = e^{b_0} \cdot X_1^{b_1} \cdot X_2^{b_2} \cdot e^{b_3 d_t}$$

Bunda – internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni (X_1), turistik firma va tashkilotlar soni (X_2), hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar (d_t)

Yuqorida taklif qilingan regressiya tenglamaning ikki tarafini logarifmlab quyidagicha shakl hosil qilamiz.

$$\ln Y = b_0 + b_1 \ln X_1 + b_2 \ln X_2 + b_3 d_t$$

Bu modeldagi koeffitsiyentlarni aniqlash uchun yuqoridagi regressiya tenglama uchun quyidagicha belgilashlarni kiritib olishimiz zarur.

$$\ln Y = y, \ln X_1 = x_1, \ln X_2 = x_2$$

Bu belgilashlarni taklif qilinayotgan regressiya tenglamaga keltirib qo'yib, quyidagicha shaklga keltirib olamiz:

$$y = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 d_t$$

7-jadval

Regressiya tenglamaning koeffitsiyentlari, t-statistika, P qiymati va koeffitsiyentlarning ishonchli oralig'lari²³

	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	P-qiymat	Pastki 95%	Yuqori 95%
Y-kesishma	-0,535	0,48	-2,4	0,01	-1,93	-0,14
O'zgaruvchi X1	0,81	0,03	4,49	0,01	0,24	1,37
O'zgaruvchi X2	0,52	0,05	3,04	0,02	0,21	1,75
O'zgaruvchi X3	-0,9	0,15	-2,6	0,03	-1,74	-0,05

Bu jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, aniqlanayotgan regressiya tenglama quyigacha:

$$y = -0,535 + 0,81x_1 + 0,52x_2 - 0,9d_t$$

Bu regressiya tenglama bo'yicha quyidagicha xulosalarni shakllantirish mumkin. Yani x_1 faktorning birlikka o'zgarishi y ning 0,81 birlik ortishiga olib keladi. Regressiya tenglamaning ikkinchi faktori x_2 ning birlikka o'zgarishi y ning 0,52 birlikka ortishiga olib keladi. Uchinchi faktor d_t ning birlikka o'zgarishi y ning 0,9 birlikka kamayishiga olib kelishini ko'ramiz.

Aniqlangan koeffitsiyentlarni o'z o'rniga keltirib qo'yamiz. Bunda taklif qilingan modelning ifodasi quyidagicha:

$$Y = e^{-5,35} \cdot X_1^{0,81} \cdot X_2^{0,52} \cdot e^{-0,9d_t}$$

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti, determinatsiya koeffitsiyenti, approksimatsiya xatoligi hamda gipotezalarga tekshirilishi

Y	Y(x)	$\varepsilon = Y - Y(x)$	ε^2	$(Y - \bar{Y})^2$	$ \varepsilon : Y $
14.468	14.612	-0.144	0.0208	0.376	0.00996
14.524	14.772	-0.248	0.0617	0.31	0.0171
14.805	14.911	-0.106	0.0112	0.076	0.00715
15.493	15.112	0.381	0.145	0.17	0.0246
15.725	15.294	0.431	0.185	0.415	0.0274
14.254	14.335	-0.0809	0.00655	0.684	0.00568
14.447	14.366	0.0809	0.00655	0.402	0.0056
15.47	15.483	-0.0128	0.000165	0.152	0.000831
15.703	15.856	-0.154	0.0237	0.387	0.0098
15.92	16.066	-0.146	0.0214	0.704	0.00919
			0.482	3.675	0.117


Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida taklif qilinadigan regressiya tenglamaning approksimatsiya xatoligini aniqlab olamiz. Buning uchun biz taklif qiladigan regressiya tenglamaning natijasi bilan haqiqatdagi natijaning xatoligini o'rtacha qiymati topiladi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$A = \frac{\sum_{i=1}^n \left| \frac{\varepsilon}{\bar{Y}} \right|}{n} \cdot 100\% = \frac{0,117}{10} \cdot 100\% = 1,17\%$$

Bu natijadan ko'rishimiz mumkinki, tashrif buyurgan xorijiy turistlarning haqiqatdagi soni bilan biz taklif qilgan regressiya tenglama orqali aniqlangan tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soni orasidagi farq 1,17 foizni tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, taklif qilinayotgan regressiya tenglamaning ishonchligi yuqori darajada ekan. Shu bilan birga biz tanlagan faktorlar tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soniga ta'sir darajasining umumiy bog'liqligini aniqlaymiz. Buning uchun ham yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ko'p o'lchovli korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlaymiz. Aniqlangan korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagicha:

$$R = \sqrt{1 - \frac{s_e^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2}} = \sqrt{1 - \frac{0,482}{3,67}} = 0,932$$

Umumiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 1ga yaqin bo'lishi, taklif qilinayotgan regressiya tenglamani ishonchligi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.



8-rasm. Tashrif buyurgan xorijiy turistlar soning 10 yillik statistik ma'lumotlar va ularning kelajakdagi 5 yillik prognoz natijalari

Kelajakdagi 5 yilda tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning o'rtacha o'sish darajasini aniqlaymiz. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \sqrt[5]{\frac{9.011}{8.2} \cdot \frac{9.63}{9.011} \cdot \frac{10.34}{9.63} \cdot \frac{11.96}{10.34} \cdot \frac{12.11}{11.96}} = \sqrt[5]{1,4768} = 1,081$$

Yuqoridagi natijadan ko'rishimiz mumkinki, prognoz yillarning o'rtacha o'sish sur'ati 8,1 foizni tashkil qiladi.

O'zbekistonning turizm salohiyatini raqamli asrga mos ravishda rivojlantirish uchun yagona raqamli platforma zarur. Uzbekistan.travel portalini takomillashtirish bu yo'nalishda muhim qadam bo'lib, u nafaqat turistlar uchun qulaylik yaratadi, balki turizm sohasini iqtisodiy jihatdan mustahkamlaydi.

9-jadval

Raqamli turizm yagona platformasining asosiy tarkibiy qismlari²⁴

Element nomi	Tavsifi	Foydasi
Tourism identifikatsiya tizimi	Har bir turistik tashrif uchun QR-kod asosida shaxsiy hisobni yaratadi. Turistlarning tashriflari va xizmatlari qayd qilinadi.	- Sayohat tajribasini shaxsiylashtirish. - Mos xizmatlarni taklif qilish. - Iqtisodiy tahlillar uchun ma'lumot.
Ko'p tilli tajimon yordamchi	Real vaqt rejimida avtomatik tarjima qilish, mehmonxonalar, restoranlar va diqqatga sazovor joylar bo'yicha tavsiyalar beradi.	- Til to'sig'ini bartaraf etish. - Xalqaro turistlarni jalb qilish.
Innovatsion texnologiyalar	Turistik obyektlar xavfsizligini masofaviy nazorat qilish va monitoringni ta'minlaydi.	- Xavfsizlikni oshirish. - Obyektlarni boshqarish samaradorligini kuchaytirish.
Raqamli ball tizimi	Har bir tashrif uchun ball beriladi, turistlar bu ballarni chegirmalarga yoki sovg'alarga almashtirishi mumkin.	- Turistlarni qayta tashrif buyurishga undash. - Mahalliy xizmatlardan foydalanishni oshirish.
To'lov tizimlari integratsiyasi	Xalqaro va mahalliy to'lov tizimlari orqali tezkor va qulay to'lov imkoniyatlarini taqdim etadi.	- To'lov jarayonini soddalashtirish. - Xizmatlarni kengroq auditoriyaga taklif qilish.
Statistik hisobot va monitoring	Turizm ma'lumotlarini yig'ish va real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi.	- Turizm sektorini monitoring qilish. - Strategiyalarni takomillashtirish va optimallashtirish.

Ushbu takomillashtirish mexanizmlari orqali Uzbekistan.travel nafaqat turistlar uchun qulaylik yaratadi, balki mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va O'zbekistonni xalqaro turizm xaritasida yuqori pog'onalarga olib chiqish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali turistlar tajribasi yaxshilanadi, platformaning samaradorligi oshadi va mamlakatning turistik brendi mustahkamlanadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish davomida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati sezilarli darajada yuqori bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotga qo'shadigan hissasi, bandlikni ta'minlashdagi o'rni va xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi kelgusida raqamli transformatsiya orqali yanada oshishi mumkin. Tadqiqot davomida raqamli turizmni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari aniqlanib, uning turizm xizmatlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish va global turizm bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkoniyatlari ochib berildi.

2. Raqamli turizm zamonaviy texnologiyalarni turizm sohasi bilan integratsiyalashuvining tabiiy mahsuli sifatida shakllanadi. Tadqiqot raqamli

²⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turizmning shakllanish bosqichlarini aniqlash, uning mohiyatini ochib berish va sohaning rivojlanish yoʻnalishlarini tizimli yondashuv asosida tadqiq qilish orqali raqamli turizmning samarali rivojlanish modellarini ishlab chiqishga imkon berdi. Shu bilan birga, raqamli turizmning darajalari tasniflanib, sohaning rivojlanishi uchun zarur boʻlgan texnologik infratuzilma va boshqaruv jarayonlari belgilandi.

3. Tadqiqot davomida Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya kabi raqamli turizm rivojlanishida ilgʻor davlatlarning tajribasi asosida Oʻzbekiston sharoitida qoʻllanilishi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Xususan, turizm xizmatlarini raqamlashtirishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, milliy turizm resurslarini birlashtiruvchi yagona raqamli platformalarni yaratish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali turizm xizmatlarini yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

4. Statistik va tahliliy usullardan foydalanilgan holda Oʻzbekistondagi raqamli turizmning mavjud holati va rivojlanish salohiyati baholandi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, mamlakat raqamli infratuzilmasini rivojlantirish, turistik portal va onlayn xizmatlarning qulayligi va samaradorligini oshirish orqali turizm xizmatlarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyati mavjud.

5. Oʻzbekiston turizm sohasida raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish masalalarida sezilarli yutuqlarga erishgan boʻlsa-da, tizimni optimallashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Tadqiqot natijasida mavjud raqamli infratuzilmalar samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va boshqaruv tizimini takomillashtirish boʻyicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

6. Raqamli turizm xizmatlari bozorini shakllantirishda iqtisodiy barqarorlik, texnologik infratuzilmaning rivojlanish darajasi, aholi daromadlari va raqamli savodxonlik hal qiluvchi omillar sifatida namoyon boʻladi. Ushbu omillarning har biri bozor hajmi va xizmatlar sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi ilmiy asosda tasdiqlandi, ularning oʻzaro bogʻliqligi esa matematik modellashtirish yordamida tahlil qilindi.

7. Uzbekistan.travel portalini mamlakatning raqamli turizm sohasidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida portalning funktsionalligi, foydalanuvchi interfeysi, maʼlumotlarning toʻliqligi va tahlil mezonlari boʻyicha baholash usullari ishlab chiqildi. Shuningdek, obunachilar soni va faoliyati boʻyicha ekonometrik modellar yordamida portalni prognozlash metodikasi taklif etildi.

8. Tadqiqot raqamli turizmni rivojlantirishda iqtisodiy tartibga solish usullari doirasida islom moliyasi vositalarini qoʻllash imkoniyatlarini ochib berdi. Xususan, sukuk, murabaha kabi moliyaviy vositalarning turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi oʻrni, ularning moliyalashtirish va resurslarni adolatli taqsimlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

9. Yagona raqamli milliy turizm platformasi Oʻzbekiston turizm sohasini xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga olib chiqishning muhim strategik yoʻnalishi sifatida belgilandi. Tadqiqot natijasida mazkur platformani takomillashtirish va turistlar uchun koʻrsatiladigan xizmatlarning sifati va qamrovini kengaytirish boʻyicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi. Ushbu platforma milliy turizmni global bozorga integratsiyalashda hal qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024. 1.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУРРАМОВ ОРТИКЖОН КАЮМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

**ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

UDK: 338.48:330(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Xurramov Ortikjon Kayumovich

О'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Хуррамов Ортикжон Каюмович

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития
цифрового туризма в Узбекистане.....29

Khurramov Ortikjon Kayumovich

Improving organizational and economic mechanisms for the development of digital
tourism in Uzbekistan59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024. 1.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУРРАМОВ ОРТИКЖОН КАЮМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

**ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2020.1.PhD/Iqt1198 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Наврӯз-Зода Бахтиёр Негматович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кодиров Азиз Анварович
доктор экономических наук, доцент

Миратев Абдуллажон Толипович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится в 16:00 часов 27-июня 2025 года на заседании Научного совета DSc.03.27.09.2024.1.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № D/679). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «13-июня» 2025 года

(реестр протокола рассылки № 1 от «13» июня 2025 года



О.Х.Хамидов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Д.Ш.Явмутов

Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

А.О.Очилов

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире цифровые технологии вывели развитие сферы туризма на новый уровень. В 2024 году туризм во всем мире достиг значительного роста. В 2024 году сфера туризма внесла вклад в мировой валовой внутренний продукт (ВВП) в размере 11,1 трлн долларов, что составляет 10% мирового экономического производства. Этот показатель по сравнению с 2023 годом увеличился на 12,1%²⁵. Цифровые технологии оказывают существенное влияние на развитие индустрии туризма, создавая новые возможности для туристов, а также способствуют совершенствованию сетевой инфраструктуры. Этот технологический прогресс позволяет адаптировать туристические услуги к динамично меняющимся требованиям потребителей, оптимизировать туристический опыт и ускорить процесс разработки инновационных решений.

В мире туристы уделяют большое внимание качеству услуг цифрового туризма, проводятся научно-исследовательские работы, направленные на обеспечение легкой и быстрой реализации в онлайн-режиме таких услуг, как процесс получения визы, бронирование гостиниц и транспорта, получение информации о культурных мероприятиях. Среди проводимых научных исследований важными направлениями исследований являются виртуальный туризм, онлайн-турплатформы, предоставление услуг через мобильные приложения, цифровое пространство в туризме, туристическая инфраструктура, оценка уровня цифрового туризма, формирование таких механизмов, как эффективное использование технологий, таких как большие данные (Big Data), интернет-средства (IoT), искусственный интеллект (AI), блокчейн и виртуальная реальность в сфере туризма.

В Новом Узбекистане туризм является одной из важных отраслей экономики страны, источником дохода и средством создания новых рабочих мест. Цифровой туризм способствует экономическому росту за счет повышения эффективности туристических услуг, снижения затрат и создания удобств для туристов, а также представляет наше богатое историко-культурное наследие миру через цифровые платформы, создает огромные возможности для увеличения международного туристического потока. Узбекистан находится в процессе перехода к цифровой экономике, и в рамках программы «Цифровой Узбекистан - 2030» предусмотрена цифровизация различных отраслей, включая туризм²⁶. Исследование данной темы напрямую связано с государственной политикой и стратегическими планами. За счет развития цифровой инфраструктуры повысится возможность привлечения иностранных и местных инвестиций в сферу туризма. Новые организационно-экономические механизмы будут способствовать созданию благоприятных условий для инвесторов.

²⁵ Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlari <https://www.reuters.com/business/travel-industry-contribute-record-11-trillion-global-gdp-2024-2024-09-03>

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6079-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

Развивая цифровой туризм, Узбекистан сможет позиционировать себя как конкурентоспособное государство на туристическом рынке Центральной Азии. Расширение возможностей выхода на мировой рынок путем обмена опытом с регионами, эффективно использующими цифровизацию в сфере туризма, такими как Европа и Юго-Восточная Азия, является одним из актуальных вопросов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан» от 5 января 2019 года, № УП-6165 «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан» от 9 января 2021 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики и дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов» от 26 апреля 2023 года, № ПП-238 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере туризма и эффективной организации системы государственного управления в отрасли» от 27 июля 2023 года, Указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан - 2030» от 11 сентября 2023 года, № УП-9 «О мерах по существенному увеличению потока иностранных туристов в республику и дальнейшему развитию внутреннего туризма» от 12 января 2024 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Осуществлен ряд научных исследований по цифровому туризму и его развитию в зарубежных странах. В частности, особое значение имеют научные работы таких зарубежных ученых, как D.Buhalis, A.Dearden, I.Akpan, F.Ijoma, X.Li, Y.Liu, A.Kavoura, S. Koutsou, W.Zhou, J.Xu, A.Morrison, J.Bannister, D.Vassallo, L.Moreno-Izquierdo, F.Moreno, E.Pereira, R.Silva, L.Huang, C.Lee, A.Amaranggana, H.Saar, F.Pereira, F.Vasconcelos, L.Yang, H.Song, E.Gonzalez, J.Rodriguez, M.Orcutt, S.Rehman, S.Raza, H.Sharif, J.Kaur, G.Gunay, S.Sunmez, J.Kim, D.Lee²⁷. В исследовательских

